**Fan: Texnologiya**
**Sinf: 5 sinf (o‘g‘il va qiz bolalar bo‘linmaydigan sinflar) uchun**
**BSB № 4**

**I variant**

| № | Baholanadigan ko‘nikma | Berilgan topshiriq |
|---|---|---|
| 1. | Kashta chokida kompozitsiya tikish uchun ish o‘rnini tashkil qila oladi. | Kashta chokida kompozitsiya tikish (2-bob 193-sahifa) |
| 2. | Kashta chokida kompozitsiya tikish ishini bajara oladi. | |
| 3. | Amaliy mashg‘ulotda texnika xavfsizligi qoidalariga amal qila oladi. | |

**Baholash mezonlari**

| № | Ball | Diskriptorlar |
|---|---|---|
| 1. | 10 | 1. Ish joyi yaxshi yoritilgan, ishni boshlashdan oldin sochlar yig‘ilgan, maxsus fartuk tutilgan va ro‘mol o‘ralgan bo‘lsa -5 ball<br>2. Mehnat intizomiga amal qilishiga, o‘qituvchining ruxsatisiz ish o‘rnini tashlab ketmasligi, uskunalarga ortiqcha teginmaganligi, o‘quv mashg‘ulotida boshqalarga xalaqit bermaganligiga -5 ball |
| 2. | 30 | 1. Kashtani tikishdan oldin uning umumiy badiiy yechimini o‘ylab ko‘rishi, bezakning, undagi ayrim bo‘laklarning buyum yuzasiga qanday joylashtirishni, qanday rangda tikishni, ya’ni kompozitsiya tushunchasiga kiradigan hamma narsani aniqlab olishiga-10 ball<br>2. Kashta chokida kompozitsiya yaratishiga-15 ball<br>3. Tayyor bo‘lgan mahsulotning dizayniga - 5 ball |
| 3. | 10 | 1. Ishni boshlashdan oldin kerakli ish qurollarining ishga yaroqli bo‘lishini tekshirsa-3 ball<br>2. Kashtani tikishda ish qurollaridan to‘g‘ri foydalansa- 4 ball<br>3. Ish oxirida barcha jihozlarni ko‘zdan kechirib, belgilangan joylarga qo‘ysa-3 ball |
| **Jami: 50** | | |

100001089422 eMaktab

**II variant**

| № | Baholanadigan ko‘nikma | Berilgan topshiriq |
|---|---|---|
| 1. | Ishni bajarishda mehnat intizomiga va xavfsizlik texnikasi qoidalariga amal qila oladi. | Tikuv mashinasini ishga tayyorlash va ipsiz tikish. (2-bob 151-sahifa) |
| 2. | Ishning bajarish tartibini biladi va ishni amalda bajara oladi. | |
| 3. | Ish yakunlangandan keyin ish o‘rnini tartibga keltira oladi. | |

**Baholash mezonlari**

| № | Ball | Diskriptorlar |
|---|---|---|
| 1. | 15 | 1. Ish joyi yaxshi yoritilgan, ishni boshlashdan oldin sochlar yig‘ilgan, maxsus fartuk tutilgan va ro‘mol o‘ralgan bo‘lsa - 3 ball<br>2. Mehnat intizomiga amal qilishiga, o‘qituvchining ruxsatisiz ish o‘rnini tashlab ketmasligi, uskunalarga ortiqcha teginmaganligi, o‘quv mashg‘ulotida boshqalarga xalaqit bermaganligiga - 4 ball<br>3. O‘qituvchi tomonidan berilgan topshiriqni tikuv mashinasida ishlaganda berilgan texnika xavfsizligi qoidalariga rioya qilgan holda bajarishiga – 8 ball |
| 2. | 30 | 1. Kerakli material va moslamalarning ishga yaroqliligini tekshira olishiga - 10 ball<br>2. Tikuv mashinasini ishga tayyorlash va ipsiz tikish darslikda berilgan texnologik xarita asosida amalga oshirsa - 20 ball. |
| 3. | 5 | 1. Ishni yakunlagach, mashinani elektr tokidan o‘chirib, ish qurollarini ko‘zdan kechirib, belgilangan joylarga qo‘ysa-3 ball<br>2. Ish jarayoni yakunlangandan keyin ish o‘rnini tartibga keltirib, yig‘ishtirsa -2 ball |
| **Jami: 50** | | |

***Izoh:*** *BSB-4 materiallarini chop etish shart emas.O‘quv yili davomida o‘quvchilar dasturda ko‘zda tutilgan barcha BSB-4 topshiriqlari amaliy bajariladi. Berilgan BSB-4 topshiriqlari ish hajmidan va kerakli jihozlarning borligidan kelib chiqqan holda ikkita variantdan biri ixtiyoriy ravishda tanlab olinadi. Agar (amaliy ishlarni bajarish uchun) sharoit bo‘lmasa daftar yuritishlari tavsiya etiladi.*